

DAVLAT BOSHQARUVIDA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI OLDINI OLISH BORASIDA AKTIVLAR DEKLARATSIYASINING O'RNI VA AHAMIYATI

Bosimov Doston Olim o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayes nazorati yo'nalishi

1-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7956968>

Davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasida aktivlar deklaratsiyasi joriy etish muhim hisoblanib, ko'plab xorijiy davlatlarda sinovdan o'tgan hisoblanadi.

Aktivlar deklaratsiyasi [1] korrupsiyaga qarshi kurashdagi muhim mexanizm bo'lib hisoblanadi. Deklaratsiya davlat xizmatchilari, xususan mansabdor shaxslarning daromadlarini ochiqqligini va shaffofligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Davlat boshqaruvida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasida aktivlar deklaratsiyasi joriy etish bo'yicha BMTning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasida ham bir qancha majburiy takliflarni ko'rishimiz mumkin.

Konvensiyada davlat xizmatchisining daromadi, mol-mulki va xizmatdan tashqari faoliyati to'g'risidagi deklaratsiya jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi kerakligi nazarda tutilmaydi, biroq, olimlar fikriga ko'ra, deklaratsiya mexanizmining samarali faoliyat yuritib borishi uchun ochiqqligi ta'minlangan bo'lishi kerak.

BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida oshkoralik tamoyiliga asoslangan davlat xizmatining samarali elementlari berilgan bo'lib, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin: Davlat ma'lumotlarining fuqarolar tomonidan ko'rish imkoniyati; Davlat xaridlari to'g'risida; Davlat moliya tizimi to'g'risida; Davlat organlari faoliyati to'g'risidagi hisobot; Davlat xizmatiga ishga qabul qilish va ish haqi to'g'risida; Aholining manfaatlariga taallufl bo'lgan qarorlar va huquqiy hujjatlar to'g'risida; Korrupsiya va unga qarshi kurash to'g'risida.

Shuningdek, deklaratsiya turli ijtimoiy guruhlarining manfaatlar to'qnashuvini, ya'ni mansabdor shaxs shaxsiy manfaatlari yo'lida bevosita yoki bilvosita jamiyat manfaatlariga zid ravishda xarakat yoki xarakatsizligini oldindan nazorat qilish uchun ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvida aktivlar deklaratsiyasini joriy etishning bir qancha foydali jihatlari bo'lib, jumladan, davlat xizmatiga sodiklik va sotilmaslik muxitini shakllantirishda xizmat qiladi, mansabdor shaxs uchun deklaratsiyani taqdim qilish majburiyati davlat xizmatida faoliyat olib borish katta mas'uliyat ekanligini bildiradi, hukumatga jamoatchilikning ishonchini orttiradi.

Deklaratsiyani taqdim etish korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvlarining sinchkovlik bilan nazorat qilishni, ayniqsa ularning ommaga e'lon qilinishi, davlat xizmatchilarining fuqarolar tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi.

Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tashkilotlar davlat xizmatchilarining fidokorona xulqini shakllantirish bo'yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqqan bo'lib, ular ham asosan aktivlar deklaratsiyasiga e'tibor berishgan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak: davlat xizmatchilarini ishga qabul qilish jarayonini tanlov asosida amalga oshirish mexanizmini ta'minlovchi huquqiy asosni ishlab chiqish; davlat xizmatchilari oylik ish haqining oshkoraligini ta'minlash tizimini joriy qilish; manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha qoidalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; davlat organlarining mansabdor

shaxslarining mol-mulkini majburiy tarzda deklaratsiya qilish tizimini joriy etish, davlat mansabdor shaxslarining mol-mulkini e'lon qilish tartibini tartibga solish, ushbu deklaratsiyalarni tasdiqlash va ularni jamoatchilikka yetkazish masalalarini ko'rib chiqish va boshqalarni ko'rishimiz mumkin.

Bu esa o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurashda aktivlar deklaratsiyasi mexanizmini qo'llash dolzarbligini saqlab qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligidagi normativ huquqiy xujjatlar tahlili ko'rsatmoqdaki, respublikada aktivlar deklaratsiyasi tushunchasini ochib beruvchi alohida hujjatlar mavjud emas.

Xorijiy davlatlarning davlat boshqaruvi tizimda faoliyat ko'rsatayotgan mansabdor shaxslar, davlat xizmatchilari va boshqalarning aktivlarini deklaratsiya qilishdagi tajribasini o'rganadigan bo'lsak, eng yuqori o'rinlarda AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va boshqalar turadi. Ushbu davlatlar deklaratsiya ma'lumotlarni oshkoraligini ta'minlanganligi, elektronlashtirilganligi, noqonuniy daromad aniqlanishida keng qo'llanilishi bilan alohida ajralib turadi.

Xususan, AQShda 1978-yilda qabul qilingan "Davlat mansabdor shaxslarining etikasi to'g'risida"gi Qonunga asosan bugungi kunga qadar AQShning uchta federal xokimiyati, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatining davlat xizmatchilari aktivlar deklaratsiyasini taqdim etishi belgilab qo'yilgan. Xususan, ushbu Qonunning 101-moddasiga asosan prezident, vitse prezident, Kongress a'zolari, federal darajadagi sudyalari, prezident tayinlagan mansabdor shaxslar va boshqa mansabdor shaxslar aktivlar deklaratsiyasini taqdim etishlari majburiydir [2, 3]

Shuningdek, deklaratsiyada quyidagi ma'lumotlarni taqdim etilishi kerak (102- modda):

- jami daromadlar, jumladan, dividendlar, depozit bo'yicha foizlar, mulk hisobidan olingan daromadlar va gonorarlari;
- nodavlat tashilotlaridan olingan moliyaviy va boshqa daromadlar;
- jismoniy va/yoki yuridik shaxslardan 50 AQSH dollaridan yuqori bo'lgan sovg'alar;
- qarzlar, jumladan, moliyaviy va boshqa majburiyatlar;
- turli xil tashkilotlar bilan kelgusida bajariladigan ish yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha to'zilgan shartnoma summolari;
- yaqin oila a'zolari (eri, xotini, (voyaga yetmagan) farzandlari va b.) ish faoliyat olib borayogan yoki aloqasi bo'lgan barcha korporatsiya, kompaniya va biznes tashkilotlarining ruyxati;
- davlat xizmatchisining, shu jumladan turmush o'rtog'ining va farzandlarining barcha kreditorlari hamda ko'chmas mulklari ruyxati;
- mavjud mol-mulkining kelib chiqish manbalari va qiymati to'g'risidagi ma'lumot;
- depozitlar, olingan va berilgan moddiy yordam hamda olingan kreditlar to'g'risida ma'lumot.

Koreya Respublikasida 1981-yildagi "Davlat xizmati etikasi to'g'risidagi 3520-sonli Qonunga asosan 1993-yildan boshlab davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaga va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda, ularning daromad, xarajatlari va mulklarini nazorat qilish mexanizmi hisoblanuvchi aktivlar deklaratsiyasi amaliyotga tatbiq etildi. Ushbu Qonunning 4-moddasiga asosan, barcha yuqori darajadagi mansabdor shaxslar ularning oila a'zolari moddiy va nomoddiy mulklari to'g'risidagi ma'lumotlarni hamda tashkilotlardagi ulushlari

yoki aloqadorligini ma'lum qilishlari kerak. Ma'lumotlarni ko'rsatish belgilangan ko'rsatkichdan ortgan qiymatliklarni deklaratsiyada ko'rsatilishi lozim. Xususan, naqd pul, bank hisob rakamlari qimmatli kog'ozlar 10.900 AQSH dollaridan, oltin, platina, qimmatbaho toshlar qiymati 5.450 AQSH dollaridan ortiq bo'lganda hamda yiliga 10.900 AQSH dollarida foyda keltiradigan nomoddiy mulklar aktivlar deklaratsiyasida ma'lumotlarida taqdim etilishi kerak[4, 5].

Respublikada korrupsiyaga qarshi kurash sohasida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsioner sifatida qarash holatlari ko'plab uchramoqda.

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bunga sabablardan biri mansabdor shaxslarning daromadlari oshkoraligi ta'minlanmagan va ular tomonidan amalga oshirilayotgan qimmatbaho xaridlar ularning daromadlariga mos ravishda emasligi, aholi o'rtasida davlat xizmatchisining daromadlari noqonuniy ekanligiga shubha uyg'otishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda respublikada mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish borasida aktivlar deklaratsiyasini tatbiq qilish bo'yicha bir qancha yo'nalishlardagi ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilarining daromadlari, harajatlari va mulklarini nazorat qilish bo'yicha huquqiy asosning yetarli emasligi, ularning orasida korrupsiyaning yuqori darajasi saqlanib qolishiga sabablardan biri bo'lmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasiga muvofiq, 2018-yilda ishlab chiqilgan "Davlat xizmati to'g'risida"gi Qonun loyihasida, barcha davlat xizmatchilariga (texnik guruh xodimlari toifasidagilar bundan mustasno) har yili mol-mulki xaqida deklaratsiya, daromadlari va katta harajatlari to'g'risida ma'lumot berishini majburiy qilib quyishni taklif etilgan edi. 2022-yil 8-avgustda "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unda davlat fuqarolik xizmatchilari kimlar ekanligi, vakolatlari, huquq va majburiyatlari ko'rsatilib o'tilgan. Qonunning 20-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisi qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari hamda mol-mulki to'g'risida deklaratsiya taqdim etishi shartligi belgilab qo'yilgan. "Davlat fuqarolik xizmatlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi "Aktivlar deklaratsiyasi to'g'risida"gi me'yoriy-huquqiy hujjat ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Hozirda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga yuborilgan. Qonunda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyasi bo'yicha normalar kiritilgan bo'lib, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Qonunning 6-moddasida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'ida ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etishi huquqiga egaligi aytilgan. Shuningdek, Qonunning 7-moddasida davlat organining yoki boshqa tashkilotning hodimiga aloqador shaxslar mazkur hodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilot bilan munosabatlarga kirishganda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritmasligi shartligi keltirilib o'tilgan. Bularga amal

qilmaslik esa ushbu Qonunda belgilangan huquqiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

“Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi Qonun loyihasida davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsga doir ma'lumotlari o'zgargan taqdirda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirish va har yili 15-yanvardan kechiktirmay taqdim etishi kerakligi, agarda davlat organiga yoki boshqa tashkilotga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek boshqa ishga o'tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to'ldirishi va taqdim etishi kerakligi keltirilib o'tilgan.

Milliy qonunchiligimizdagi bunday o'zgarishlar davlat boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvining oldimi olishga va uni bartaraf etishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aktivlar deklaratsiyasi borasidagi qonunni qabul qilish va uni amaliyotga joriy etish uchun barcha sabab va omillar mavjud hisoblanadi. Yuqorida nomi keltirilgan qonunlar, bundan tashqari xalqaro qonunchilik, korrupsiya eng past davlatlarning tajribasiga asoslanib “Aktivlar deklaratsiyasi to'g'risida”gi Qonunni ishlab chiqish hozirda davlatchiligimizning muhim talabi hisoblanadi.

References:

1. «Коррупция в странах Центральной Азии и Урало-Сибирского региона России» Центр изучения общественного мнения и прогнозирования. Подготовлено Илибеговой Илибеговой Л., Маматкеримовой Г., Мусакожаевой Г., Токтосуновой Р. Пршрамма ПРООН в Кыргызстане «Политическое и административное управление на центральном уровне»: Бишкек: 2002,- 75 с
2. OECD, Asset declarations for public officials: A tool to prevent corruption, 2011. p22, <http://dx.doi.org/10.1787/9789264095281-en>;
3. Titles I-V ethics in Government Act of 1978 <https://legcounscl.house.gov/Comps/Ethics%20n%20Government%20Act%20of%201978.pdf> // Xorijiy davlatlarda mansabdor shaxslar aktivlarini deklaratsiya qilish/ B.I. Ismailov, B.I. Ismoilov/ Toshkent -2019/ -58 b
4. Korea, <https://star.worldbank.org/sites/star/files/korea-ad-country-profile.pdf>
5. Public service Ethics Act of Korean Republic, <http://unpanl.un.org/intradoc/groups/public/documents/apcity/unpan019099.pdf>